

NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturi Charter maktablari uchun ishtirok holatini o'zgartirish ma'lumoti va shakli

Kollej uchun jamg'arish dasturi haqida

NYC Ta'lim departamenti ("DOE") notijorat tashkilot NYC Kids RISE, Inc. bilan hamkorlikda "NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish" dasturini (Save for College Program) ("Dastur") yo'lga qo'ydi. Ushbu bepul dastur orqali NYC davlat maktabiga (NYC public school), shu jumladan ishtirok etuvchi charter maktablariga ro'yxatdan o'tgan har bir maktabgacha ta'lim o'quvchisi, agar ota-onasi yoki vasiysi dasturdan "voz kechmasa", avtomatik tarzda o'z nomiga dastlabki 100\$ miqdorida mablag' ajratilgan NYC stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) ega bo'ladi. Oilalar mukofot sifatida ushbu hisob raqamiga qo'shimcha stipendiya mablag'larini olishlari mumkin va hamjamiyatlar har bir bolaning muvaffaqiyati uchun o'z jamoasining qo'llab-quvvatlashini ko'rsatish maqsadida NYC stipendiya hisoblari guruhlariga qo'shimcha pul o'tkazishlari mumkin. Batafsil ma'lumot olish uchun <http://nykidsrise.org/> saytiga tashrif buyuring.

Ota-ona/vasiy sifatida qanday imkoniyatlarim mavjud?

Ota-onalar/vasiylar dastlabki voz kechish muddati davomida "voz kechish" tanlovini qilmasalar, muvofiq o'quvchilar Kollej uchun jamg'arish dasturiga avtomatik tarzda ro'yxatdan o'tkaziladi. Biroq, ota-onalar/vasiylar avval voz kechgan bo'lsa-da, keyinchalik fikrini o'zgartirib, muvofiq o'quvchisining ishtirokini istasa, kechroq ham ro'yxatdan o'tkazishi mumkin. Shuningdek, farzandingizni Dasturga ro'yxatdan o'tkazganingizdan so'ng, istalgan paytda uning ishtirokini bekor qilish imkoniyatiga egasiz. Oilalar farzandlarining beshinchi sinf yili tugaguniga qadar ro'yxatdan o'tkazishi/qayta ro'yxatdan o'tkazishi mumkin.

Bekor qilish haqida

Ota-onalar/vasiylar o'z farzandining "Kollej uchun jamg'arish" dasturidagi ishtirokini istalgan paytda to'xtatish huquqiga ega. Ushbu shakl orqali Bekor qilish so'rovini yuborish bilan siz NYC Kids RISE tashkilotiga quyidagilarga rozilik bildirasiz: (1) o'quvchingizning NYC stipendiya hisobini yopish, (2) o'quvchingizning NYC stipendiya hisobiga ajratilgan barcha mablag'larni, jumladan mukofotlar va hamjamiyat stipendiyalarini bekor qilib, NYC Kids RISE hisobiga qaytarish, (3) o'quvchingiz nomidan yaratilgan har bir Jamg'arma kuzatuvchisi profilini o'chirish, (4) o'quvchingiz bilan bog'liq fayldagi har bir katta yoshli shaxsni ushbu o'chirish haqida xabardor qilish va (5) NYC Kids RISE ro'yxatdan o'tishni bekor qilish siyosati hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq o'quvchingiz hisobiga oid tarixiy ma'lumotlarni saqlash. Iltimos, e'tibor bering: agar farzandingizni keyinroq qayta ro'yxatdan o'tkazishga qaror qilsangiz, qayta ro'yxatdan o'tkazish paytida farzandingizga ajratiladigan mablag' atigi 100\$ bo'ladi. Ilgari ajratilgan bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha mablag'lar hisobga olinmaydi.

NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturi Charter maktablari uchun ishtirok holatini o'zgartirish ma'lumoti va shakli

Ro'yxatdan o'tkazish/qayta ro'yxatdan o'tkazish haqida

Agar ota-onalar/vasiylar dastlab o'quvchisining "Kollej uchun jamg'arish" dasturida ishtirok etishdan voz kechgan yoki keyinchalik ishtirokini bekor qilgan bo'lsa, ular beshinchi sinf yili tugagunga qadar istalgan vaqtda dasturga muvofiq bo'lgan o'quvchini ro'yxatdan o'tkazish (yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish) uchun murojaat qilishlari mumkin. Agar o'quvchi beshinchi sinf yilini tamomlagan bo'lsa, u Dasturga qo'shilishi, har qanday stipendiya mablag'larini olishi yoki kelajakda mukofotlanishi mumkin **emas**.

Dasturga ro'yxatdan o'tkazish (yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish) uchun so'rov yuborgan paytingizdan boshlab, siz DOE (Ta'lim departamenti) tashkilotining quyidagi ma'lumotlarni NYC Kids RISE va ularning texnologik hamkori VistaShare bilan almashishiga rozilik bildirasiz. Ushbu ma'lumotlar muvofiq o'quvchingiz uchun NYC stipendiya hisobini ochish maqsadida talab qilinadi va (a) NYC Kids RISE bu ma'lumotlarni olmaguncha hamda (b) NYC Kids RISE'ning muntazam moliyalashtirish davrining keyingi bosqichigacha (hozirda yiliga ikki marta o'tkaziladi) o'quvchingizning NYC stipendiya hisobi ochilmaydi va dastlabki 100\$ ajratilmaydi.

- Dastur uchun o'quvchining yagona identifikatsiya raqami
- To'liq ism-familiyasi
- Tug'ilgan sanasi
- Uy manzili
- Uy manzili o'zgargan yoki yo'qligi
- Uy telefon raqami
- Maktab nomi
- Joriy sinf darajasi;
- Uyda so'zlashiladigan til(lar)
- Agar mavjud bo'lsa, NYC davlat maktablari tizimi ichida va undan tashqarida boshqa maktablarga amalga oshirilgan o'tkazishlar

NYC Kids RISE va VistaShare tashkilotiga har bir o'quvchi uchun ikki nafargacha ota-ona/vasiyning quyidagi ma'lumotlari kerak bo'ladi:

- Dastur uchun ota-onaning yagona identifikatsiya raqami;
- To'liq ism-familiyasi
- Elektron pochta manzili
- Uyali va/yoki boshqa telefon raqami.

O'quvchingizning "Kollej uchun jamg'arish" dasturidagi ishtirok holatini o'zgartirish uchun, iltimos, 3-sahifadagi shaklni to'ldirib, uni o'quvchingiz tahsil olayotgan maktabning asosiy ma'muriyatiga topshiring.

NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturi Charter maktablari uchun ishtirok holatini o'zgartirish ma'lumoti va shakli

Ishtirok holatini o'zgartirish shakli

Muvofiq o'quvchining ota-onasi yoki vasiysi sifatida, men uning NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturidagi ishtirok etish holatini o'zgartirmoqchiman.

Kiritmoqchi bo'lgan o'zgarishingiz uchun katakchani belgilang:

- Men o'quvchimni NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturiga RO'YXATDAN O'TKAZISHNI XOHLAYMAN. Men ma'lumotlarning NYC Kids RISE va uning texnologik hamkori VistaShare bilan almashilishiga ROZILIK BILDIRAMAN. Men o'quvchimning NYC stipendiya hisobi darhol foydalanishga tayyor bo'lmasligi va u hozirda yiliga ikki marta o'tkaziladigan keyingi muntazam moliyalashtirish davrida ochilishini tushunaman.
- Men o'quvchimning NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturidagi ishtirokini BEKOR QILISHNI XOHLAYMAN. Men o'quvchimning NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturidagi NYC stipendiya hisobiga ajratilgan har qanday mablag' NYC Kids RISE tashkiloti tomonidan boshqa ishtirok etayotgan o'quvchilar foydasiga qayta taqsimlanishini va o'quvchimning NYC stipendiya hisobi yopilishini tushunaman.

O'quvchingizning maktab asosiy ma'muriyatiga topshirishdan avval, quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishingizni so'raymiz.

O'quvchining to'liq ism-familiyasi:

O'quvchining rasmiy sinfi:

Maktab nomi:

Ota-ona/vasiyning aniq ism-familiyasi:

Ota-ona/vasiyning imzosi:

Sana:

MA'MURIYAT ESLATMASI: Ushbu hujjatdagi ma'lumotlar qabul qilinganidan so'ng 7 kun ichida (taxminan 1 hafta) maktabingizning ATS bo'yicha mas'ul xodimi tomonidan tekshirilishi va ATSGa kiritilishi lozim. Kollej uchun jamg'arish dasturiga oid har qanday savol bo'yicha maktabingizdagi Kollej uchun jamg'arish dasturi bo'yicha mas'ul shaxsga murojaat qiling yoki (833) 543-7473 raqami orqali Kollej uchun jamg'arish dasturi ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin. Barcha qaytarilgan shakllarni o'quvchining Yig'ma (kumulativ) papkasida cheklanmagan muddat davomida saqlang.